

# **Alkanolaminlarning absorbsion, regeneratsion, korrozion va selektivlik xususiyatlariga turli qo'shimchalarining ta'siri**

Sabina Alisher qizi Fayziyeva  
Saidjon Abdusalimovich G'aybullayev  
saidxontura@mail.ru  
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

**Annotatsiya:** Maqolada uglevodorodli gazlarni nordon komponentlardan tozalashda absorbent sifatida qo'llaniladigan alkanolaminlarning tarkibini takomillashtirish, ularning absorbsion, regeneratsion, korrozion va selektivlik xususiyatlarini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilgan taddiqotlar va ularning natijalari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** uglevodorodli gazlar, nordon komponentlar, vodorod sulfidi, karbonil sulfidi, merkaptanlar, sulfid va disulfidlar, gazlarni tozalash

## **Effect of various additives on absorption, regeneration, corrosion and selectivity properties of alkanolamines**

Sabina Alisher kizi Fayziyeva  
Saidjon Abdusalimovich Gaybullayev  
saidkhontura@mail.ru  
Bukhara Institute of Engineering and Technology

**Abstract:** The article describes studies carried out to improve the composition of alkanolamines used as absorbents in the purification of hydrocarbon gases from acidic components, improve their absorption, regeneration, corrosion-selective properties and their results.

**Keywords:** hydrocarbon gases, sour components, hydrogen sulfide, carbonyl sulfide, mercaptans, sulfides and disulfides

### **KIRISH**

Tabiiy va yo'ldosh gazlarni  $H_2S$ ,  $CO_2$ ,  $RSH$ ,  $COS$  va  $CS_2$  kabi nordon komponentlardan tozalashda sanoatda yutuvchi sifatida eng ko'p qo'llaniladigan absorbentlar etanolaminlar: monoetanolamin (*MEA*), dietanolamin (*DEA*) va N-metildietanolamin (*MDEA*) lar sanaladi. Odatda MEA faqatgina, neftni qayta ishlash zavodlarining tarkibida kam miqdorda  $CO_2$  saqlovchi gazlarini tozalashda qo'llaniladi. Gazlar tarkibida  $COS$  va  $CS_2$  bo'lishi ular MEA bilan qaytmas reaksiyaga kirishib,

katta yo'qotilishlarga sabab bo'lgani bois bu usulga muayyan cheklovlar mavjud. Gazlarni  $CO_2$  dan tozalashda MEA eritmalari sezilarli korroziyaga olib kelishi mumkin. MEAning o'ziga xos bo'lgan ko'plab kamchiliklari tufayli, ushbu amin hozirgi vaqtida yangi ob'ektlarni loyihalashda amalda qo'llanilmaydi va mavjud zavodlarning aksariyati MDEA ga o'tkazilmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Gaz sanoatining yirik gazni qayta ishlash zavodlarida DEA gazlarni nordon komponentlardan tanlanmay toshlash uchun loyiha bo'yicha qo'llaniladigan bazaviy absorbent sanaladi. Hozirgi vaqtida yurtimizdagi gazni qayta ishlash zavodlarida gazni tozalash uchun DEA ning 40 % gacha suvli eritmalari ishlatiladi. Mazkur jarayon gazlarni  $H_2S$  va  $CO_2$  dan talab etilgan tozalash imkonini beradi. Biroq, absorbentni qayta tiklash chog'ida issiqlik xarajatlarining ortishi DEA ning kamchiliklari sifatida namoyon bo'ladi. Gaz tozalash inshootlarida aminning yuqori to'yinganligi va haroratning ko'tarilishi tufayli DEA ning destruktiv parchalanish sodir bo'lib, uning destruktiv parchalanish darajasi yiliga taxminan 7% ni tashkil qiladi, bu esa o'z navbatida eritmani vaqtি-vaqtি bilan almashtirish va uni vakuumli distillash orqali aralashmalardan tozalash zarurligini taqazo qiladi.

Uglevodorodli gaz xomashyolarini nordon komponentlardan tozalashda  $CO_2$  ishtirokida  $H_2S$  ni tanlab tozalashda (masalan, gazni chuqur qayta ishlanmasdan gaz quvurlariga uzatishda) uchlamchi amin - MDEA ishlatiladi. MDEA eritmalari MEA bilan qiyoslaganda, uning korrozion faolligining, termodestruktiv parchalanishga moyilligining va regeneratsiya uchun talab qilinadigan energiyaning kamligi va foydalanishda nordon komponentlarga to'yinganlikning yuqoriligi bilan tavsiflanadi [1-3].

1986 yilda MDEA ilk bor Muborak gazni qayta ishlash zavodining unumdorligi  $125 \text{ ming m}^3/\text{soat}$  bo'lgan 12-blokida Zevardi konidan kelayotgan kam oltingugurtli tabiiy gazni ( $0,07\% H_2S$ ,  $4,1\% CO_2$ ) tozalash uchun sinovdan o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra tovar gazdagi  $CO_2$  miqdori  $50 - 55\%$  ga kamayganini hamda bunda, amin sirkulyatsiyasining karraligi DEA bilan solishtirganda ikki-uch baravar kamaydi. Aminning nordon gazlarga to'yinganlik darajasi DEA miqyosida  $0,43 - 0,52 \text{ mol/mol}$  ni tashkil etsa, MDEA miqyosida  $0,42 - 0,79 \text{ mol/mol}$  ga yetdi [2-5].

MEA o'rniga MDEA dan foydalanish neftni qayta ishlash zavodlari uchun istiqbolli sanaladi. MDEA ning asosiy afzalligi uning korrozion faolligining kamligi bo'lib, MEA ( $10 - 20\% \text{ mass.}$ ) ga nisbatan yanada ko'proq konsentrangan eritmalardan ( $30 - 50\% \text{ mass.}$ ) foydalanish imkonini beradi. Shu bilan birga, MEA ning nordon gazlarga to'yinish darajasi  $0,2 - 0,3 \text{ mol/mol}$  bilan cheklangan, MDEA uchun esa  $0,5 - 0,6 \text{ mol/mol}$  ni tashkil etadi. Bu o'z navbatida absorbentning sirkulyatsiyasi va regeneratsiyasi uchun energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi.

MEA ning o'rniga MDEA ni qo'llash evaziga bug 'iste'molini 25% ga, elektr energiyasini - 5% ga tejilib, uskunaning korroziyalanishi va qatronlanish hisobiga ifloslanishini sezilarli darajada kamaytiriladi. Absorbent sifatida MDEA qo'llanganda uning xizmat davrining oshishi amin iste'molini kamaytirishga yordam beradi. Chunki, MEA eritmasi har ikki yilda bir marta to'liq almashtirish amalga oshirilishi lozim [3-7].

Keyingi yillarda MDEA ning 30 % mass.li eritmalari mazkur zavodning boshqa bloklariga, boshqa zavod va qo'shimcha quvvatlarda qo'llash uchun an'anaviy absorbent o'rniga gazini tozalashda muvaffaqiyatli o'zlashtirildi. Shu o'rinda, tovar gazdagi  $CO_2$  ning kamaytirilishi 20-28% darajasida (tovar gazidagi  $CO_2$  ning miqdori 1-1,4%) amalga oshirildi [4-6].

Absorbent sarfini kamaytish, gazdagi nordon komponentlar miqdorini keskin pasaytirish, gazlarni tozalash chuqurligini oshirish va energiya tejamkorligiga erishish maqsadida aralash absorbent MDEA/DEA birinchi marta 1992 yilda xorijda gazni qayta ishlash zavodida sinovdan o'tkazilganda tozalangan gazning sifati DEA yordamida tozalangan gazning sifat ko'rsatkichlariga juda o'xshash bo'lib, regeneratsiya uchun bug' sarfining 15-20% ga tejash mumkinligini ko'rsatdi.

Keyinchalik 1994 yilda navbatdagu GQIZ ida MDEA/DEA dan iborat aralash absorbent qo'llanila boshlandi. Biroq, sinov-sanaot sharoitida ekspluatatsiya natijasida jihozlarning korroziyasi kuchayganligi aniqlandi. Sanoat sharoitlarini modellovchi avtoklavda o'tkazilgan tadqiqotlar aminlarning yuqori to'yinish sharoitlari va to'yingan absorbentning yuqori haroratlari ( $95-100^{\circ}S$ ) da aralash absorbentlari MDEA/DEA nisbati 20/80 dan 80/20 gacha bo'lган keng diapazonda korrozion faolligining oshishiga moyilligi borligini aniqlashga imkon berdi.

## NATIJALAR

Aminli eritmalarning korrozion faolligini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar nisbatlari keng diapazonda o'zgaruvchi MDEA/DEA aralash eritmalarining korrozion faolligining oshishiga moyilligining borligi metallning kristall tuzilishli sirtiy sulfidli plyonkasining amorf strukturaga o'tishi bilan uning mexanik mustahkamligini yo'qotilishi hamda oqim tezligi ortgan sohalarida xiralanishi bilan izohlandi [5-11]. Shu sababdan o'tkazilgan tadqiqotlarda absorbentlarning metal konstruksiyalariga korrozion tajovvuzini minimal qiymatda ushlab turish bilan gazlarni tozalash samaradorligini oshirish maqsadida MDEA/DEA aralashmasi polietilenglikollarning metil efirlari (PGME) bilan absorbent kompozitsiyalari tayyorlandi. Eksperiment uchun turli nisbatlardagi MDEA/DEA aralashmasiga PGME turli miqdorlarda qo'shib, hosil bo'lган kompozitsyaning absorbsion xossalari tahlil qilindi. Maqbul tarkib MDEA / DEA nisbati 70-55% iga PGME miqdori 7-13% mass. oralig'ini tashkil etdi.

Sinov natijalari kompozitsion absorbent PGMEsiz aralash absorbentdan tezroq tiklanishi ko'rsatdi. Regeneratsiya uchun bir xil miqdorda bug 'berilganda, regenerirlangan amindagi qoldiq  $H_2S$  miqdori  $0,4 - 0,8 \text{ g/l}$  ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich MDEA/DEA bilan solishtirganda  $0,7 - 1,7 \text{ g/l}$  ga teng. Nordon gazlarga ko'ra regeneratsiya darajasi bir xil qiymatlarda ( $0,8 - 1,0 \text{ g/l}$   $H_2S$ ) amalga oshirish uchun bilan taklif etilayotgan kompozitsion amin MDEA/DEA aralash aminidan  $\approx 10\%$  kamroq bug' talab qilishi aniqlandi. Kompozitsion tarkibli yangi absorbent yordamida tozalangan gaz sifatining tavsifiy xususiyatlari quyidagicha yaxshilandi: tozalangan gazdagi  $H_2S$  ning miqdori  $10 - 17 \text{ mg/m}^3$  o'rniغا  $6,3 - 9,8 \text{ mg/m}^3$  ni tashkil etdi; uning tarkibidagi  $CO_2$ ning miqdori  $50 - 260 \text{ mg/m}^3$  ni tashkil qiladi.

O'tkazilgan tadqiqotlarda 40 % mass. MDEA va 15 % mass. PGME dan iborat yangi selektiv absorbent olinib, yuqori oltingugurtli gazlarni (4,5 %  $H_2S$ , 5,9 %  $CO_2$ ) tozalashdagi samaradorligi ham tahlil qilindi. Gazli gazni qayta ishslash zavodining gaz xomashyoga ko'ra maksimal quvvati  $200 - 210 \text{ ming m}^3/\text{soat}$  ni tashkil etuvchi liniyasida (absorberning 15/25 tarelkasidagi amin harorati mos ravishda 60-65/40-55 °C) tozalash chuqurligi  $H_2S$  ga ko'ra  $7 - 15 \text{ mg/m}^3$  gacha yetdi. Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, taklif etilayotgan yangi kompozitsion absorbent uchun absorberning yuqorigi harorati tozalash sifatiga eng katta ta'sir ko'rsatadi va u  $50^\circ S$  dan oshmasligi lozim. Shu o'rinda absorber o'rta qismidagi haroratning tozalash chuqurligiga ta'siri kamroq ahamiyatga ega va  $80-85^\circ S$  ga yetishi mumkin (1-jadval).

Taklif etilayotgan kompozitsion absorbentdan foydalanish so'f MDEA eritmasi bilan solishtirganda gazni tozalashda selektivlikni oshirishga imkon berib, gazni tozalashda tozalangan gazdagi qolgan  $CO_2$  umumiyligi miqdorining 20-25% dan 35-40% gacha oshdi. Bu qiymatlar esa absorbenta  $CO_2$  ning eruvchanligining pasayishi bilan izohlanadi. Laboratoriyada  $CO_2$  ning parsial bosimi 4,9 dan  $100 \text{ kPa}$  gacha bo'lган sharoitlarda 40 va  $70^\circ S$  haroratlarda nordon gazlarining eruvchanligi tahlili qilindi. Tadqiqot gaz ta'minoti, bosim o'lchash va suyuqlik namunalarini olish tizimiga ega, zanglamaydigan po'latdan yasalgan,  $250 \text{ sm}^3$  sig'imli termostatlangan hujrada amalga oshirildi.

1-jadval.

Gazni MDEA yordamida tozalash jarayoni ko'rsatkichlarining hisoblangan va chin qiymatlari (amin harorati absorberning 25/15 tarelkasida -  $40/60^\circ C$ )

Parametrlar	O'lchov birligi	Ko'rsatkichlar	
		hisoblangan	chin
Xomashyo gaz sarfi	$\text{ming. m}^3/\text{soat}$	215	215
gaz xomashyosidagi $H_2S$ miqdori	%	4,50	4,50
gaz xomashyosidagi $CO_2$ miqdori	%	5,80	5,80
Uzatilayotgan amin haroratida tovar gazdagi $H_2S$ miqdori			
40 °C	$\text{mg/m}^3$	5	4-8
55 °C		15	17

$CO_2$ ning so'nish darajasi	%	38-40	40-45
Tovar gaz	$ming \cdot m^3/soat$	199,0	199,0
Nordon gazdag $H_2S$ miqdori	%	57,07	54,89
Sirkulyatsiyalanuvchi amin miqdori	$t/soat$	410	410
Aminning to'yinuvchanligi	$mol/mol$	0,47	0,39

Muvozanatga erishgandan so'ng, erigan gaz miqdori hajmiy (volumetric) usul yordamida aniqlandi, natijalar 2-jadvalda keltirilgan. Olingan ma'lumotlardan kelib chiqadigan bo'lsak, MDEA/DEA absorbentiga 20% mass. miqdorida metil spirtinng efirlari qo'shilishi  $CO_2$  ning muvozanatli eruvchanligini taxminan 10% ga kamaytiradi.

2-jadval.

### MDEA/DEA va MDEA/DEA+PGME absorbentlarining suvli eritmalarida $CO_2$ ning muvozanat eruvchanligi

Absorbent tarkibi	Harorat, °C	$CO_2$ ning parsial bosimi, kPa	To'yinuvchanlik, mol $CO_2$ /mol amin
40 % (50 % MDEA/ 50 % DEA)	40	5,07	0,43
	70	4,82	0,15
	40	11,97	0,57
	70	11,42	0,24
	40	97,84	0,72
	70	97,84	0,50
	40	4,73	0,37
	70	5,30	0,13
	40	10,65	0,48
	70	10,86	0,20
40 % (50 % MDEA/50% DEA) + 20 % PGME	40	98,90	0,66
	70	98,90	0,41

To'yingan amin eritmalarini qayta tiklash bo'yicha amalga oshirilgan eksperimental tadqiqotlar DEA, MDEA yoki ularning aralashmasiga PGME qo'shilishi nordon gazlarning desorbsiya jarayonini tezlashtirishini tasdiqlaydi. Shunday qilib, absorbent kompozitsiyasi tarkibiga PGME 5% miqdorda qo'shilishi 60 daqiqa regeneratsiyadan keyin absorbentdagi  $H_2S$  ning qoldiq miqdorini 5-7% ga, PGME 10% qo'shilganda esa 15-20% ga kamaytiradi. Shu bois gazni qayta ishslash zavodlariga tozalash qurilmalarida bu kabi kompozitsion absorbentlarni qo'llash, tozalanadigan gazga ko'ra unumdorligini oshirish va yiliga muayyan miqdorda qo'shimcha tovar gaz olish imkonini beribgina qolmay, Klaus qurilmalariga yetkazib beriladigan nordon gazning sifatini ta'minlash (nordon gazdag  $H_2S$  miqdori 50 % dan ortiq) imkonini berish bilan tavsiflanadi. An'anviy absorbentlarni bu kabi yangi tarkibli kompozitsion absorbentlarga almash tirish absorbentdan foydalanish samaradorligini oshirish, regeneratsiya uchun bug 'sarfini kamaytirish, nordon gazni yoqish uchun yoqilg'i gazini kamaytirish va tovar gaz hajmini oshirishdan iborat (tovar gazidagi  $CO_2$  miqdori 2,2 – 2,5 %).

Amalda gazlarni MDEA bilan tozalash qurilmalarda DEA birinchi sanoat faollashtirgichlaridan sanaladi. Gazni tozalashning xorijiy amaliyotida MDEA / DEA aralashmalaridan foydalanish 30 yildan ortiq vaqtidan beri ma'lum, ammo hozirgi

vaqtida bu aralash absorbentlar asta-sekin energiya samaradorligi, termik barqarorligi va korrozion faolligi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan takomillashtirilgan absorbentlarga almashtirilmoqda. So'nggi vaqtarda faollashtirilgan MDEA eritmalari turli gazlarni nordon aralashmalardan tozalash keng taraqqiy etmoqda. MDEA eritmalari uchun samarali faollashtiruvchi sifatida piperazin (PPZ) va uning alkil hosilalari, poliaminlar va alkilendiaminlar ishlatalishi ma'lum [6-8]. Faollashtiruvchisiz DEA o'rniga  $CO_2$  ga nisbatan selektiv hisoblangan bunday "faollashtirilgan" aminlardan foydalanish aminlarni qayta tiklash uchun energiya sarfini kamaytirish imkonini beradi. Gazlarni tozalash uchun MDEA/PPZ absorbenti ustida olib borilgan tadqiqotlar uning gazdan  $H_2S$  ni ham  $CO_2$  ni ham yutish qobiliyatining yuqori ekanligini tasdiqladi. Shu bilan birga, bunday absorbentning korrozion xususiyatlari (uning tarkibida piperazin bo'lgan DEA da ham) pasaytirilganligi aniqlandi.

Turli absorbentlarning korrozion faolligi aniqlash bo'yicha tadqiqotlar kavsharlangan shisha ampulalarda gravimetrik usulda 80°C haroratda o'rzanildi. Aminning nordon komponentlarga to'yinganligi 100 soat davom etgan ushbu sinovda 0,6 mol/mol ni tashkil etdi (3-jadval). Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadi, PGME ning individual *DEA* va *MDEA* ga 5 – 20% miqdorida qo'shilishi St.10 markali uglerodlangan po'latning korroziya tezligini 10 – 12 % ga pasaytiradi. Piperazin yanada sezilarli ta'sirga ega: *DEA* va *MDEA* ga 2 % miqdorida PPZ qo'shilishi po'latning korroziya tezligini taxminan shuncha miqdorda kamaytiradi va u *MDEA/DEA* aralashmasiga bir xil ta'sir ko'rsatadi.

3-jadval.

Turli absorbentlarda St.10 markali uglerodli po'lat markasini korroziyalanish tezligi

Absorbent	Korroziya tezligi, mm/yil
30 % <i>DEA</i>	0,0868
30 % <i>DEA</i> + 10 % PGME	0,0813
30 % <i>DEA</i> + 2 % PPZ	0,0064
40 % <i>MDEA</i>	0,08559
40 % <i>MDEA</i> + 10 % PGME	0,0773
40 % <i>MDEA</i> + 2 % PPZ	0,0080
40 % ( <i>MDEA/DEA</i> - 50/50 %)	0,0948
40 % ( <i>MDEA/DEA</i> - 50/50 %) + 2 % PPZ	0,0121

Absorbentlarning xossalari laboratoriya stendida shisha absorbion kolonnasida quyidagi sharoitlarda o'rzanildi: gaz sarfi - 8 l/soat (nordon gaz qo'shimchalariga ega azot), absorbent - 60 sm<sup>3</sup>/soat, harorat - 40 °S. Model gaz sifatida tarkibiga  $H_2S$ ,  $CO_2$ ,  $COS$  va *RSH* kiritikgan azot ishlataldi. Tajriba natijalari 4-jadvalda keltirilgan. *MDEA* va *DEA* ga 2-10% miqdorida PPZ qo'shilishi *RSH*ning ajralish darajasiga amalda ta'sir qilmasligi aniqlandi.

## 4-jadval.

PPZ ni MDEA va DEA larning absorbsion xususiyatlariga ta'siri (gaz sarfi - 8 l/soat, uzatilayotgan absorbent sarfi - 60 sm<sup>3</sup>/soat, harorat- 40 °C)

Absorbent	Dastlabki gaz				Tozalangan gaz				Ajratib olindi	
	H <sub>2</sub> S, %	CO <sub>2</sub> , %	COS, %	RSH, МГ/см <sup>3</sup>	H <sub>2</sub> S, %	CO <sub>2</sub> , %	COS, %	RSH, МГ/см <sup>3</sup>	COS, %	RSH, %
40 % MDEA	1,11	1,88	0,100	0,0010	mav. emas	0,71	0,068	0,0008	32	20
30 % DEA	1,23	1,97	0,120	0,0010	mav. emas	mav. emas	0,019	0,0007	82,7	20
40 % MDEA + 2 % PPZ	1,16	1,99	0,097	0,0011	mav. emas	mav. emas	0,006	0,0009	94	19
40 % DEA + 10 % PPZ	1,19	2,02	0,106	0,0012	mav. emas	mav. emas	0,001	0,0009	100	25
30 % DEA + 2 % PPZ	1,10	1,81	0,109	0,0012	mav. emas	mav. emas	0	0,009	100	25

Shu bilan birga, COS va CO<sub>2</sub> ning ajralishi sezilarli darajada oshadi (ayniqsa, MDEA holatida). Natijalar shuni ko'rsatdiki, MDEA va DEA ga PPZ qo'shilishi natijasida ajralish darajasi CO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>S singari seroorganik birikmalardan COS va RSH bo'yicha ham DEA dan oshib ketadi. Kompozitsiyalarning regeneratsiya xususiyatlari DEA + PPZ misolida tahlil qilindi. Sinovlar ≈ 0,1 mol H<sub>2</sub>S/mol aminlar gacha to'ynish holida o'tkazilib, so'ngra yutilgan H<sub>2</sub>S eritmaning qaynash haroratida puflama azot bilan desorbsiyalandi.

Qoldiq H<sub>2</sub>S miqdorini aniqlash uchun absorbent namunalari 30 va 60 daqiqadan so'ng olingdi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 30 daqiqadan so'ng H<sub>2</sub>S ning asosiy qismi desorbsiyalanadi va 60 daqiqadan so'ng desorbsiya deyarli yakunlanadi. Tajriba natijalari 5-jadvalda keltirilgan. DEA ga PPZ qo'shilishi absorbentni regeneratsiyalash uchun issiqlik sarfining oshirishni talab qilishi aniqlandi. Shunday qilib, 1% PPZ qo'shilganda, absorbentdagi H<sub>2</sub>S ning qoldiq miqdori ≈ 12% ga, 3% PPZ qo'shilishi bilan esa 29% ga yuqori bo'ladi. DEA + PPZ absorbentiining regeneratsion xususiyatlarini unga 10% PGME qo'shish orqali ham sezilarli darajada yaxshilash mumkin, natijada bunday absorbentning xususiyatlari sof DEA bilan bir xil bo'ladi.

## 5-jadval.

Desorbsiya jarayonida DEA + PPZ absorbentida H<sub>2</sub>S miqdorining o'zgarishi

№	Absorbent	Absorbentdagi H <sub>2</sub> S ning boshlang'ich tarkibi, mol/mol	regeneratsiyadan keyin absorbentdagi H <sub>2</sub> S ning miqdori, mol/mol	
			30 daqiqadan so'ng	60 daqiqadan so'ng
1	30 % DEA	0,100	0,0153	0,0075
2	29 % DEA + 1 % PPZ	0,108	0,0163	0,0085
3	27 % DEA + 3 % PPZ	0,102	0,0204	0,0105
4	27 % DEA + 3 % PPZ + 10 % PGME	0,105	0,0145	0,0081

## MUHOKAMA

Absorbentda PPZ qo'shimchasidan foydalangan holda tajriba sinovlari oltingugurtdan tozalash qurilmasida o'tkazildi. Ishchi absorbent eritmasi mavjud absorbent eritmasiga 10 tonna suvsiz PPZ (0,7% mass.) qo'shishi bilan tayyorlandi. Sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, absorbent eritmasida PPZ ning mavjudligi gazni qurilmasining asosiy texnologik ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi. Ya'ni boshqa qurilmalarning ishchi ko'rsatkichlari bilan bir xil. Tozalangan gazning sifati reglamentga ko'ra me'yoriy talablarga javob berdi. Shu bilan birga, absorbentda PPZ kontsentratsiyasi asta-sekin kamaydi. Muayyan vaqt o'tgach, absorbentdagি uning tarkibi to'yingan absorbentda 0,23 % mass. gacha kamaydi regenerirlanganida esa 0,28% mass. gacha kamaydi. Ushbu ma'lumotlardan aniqlan mumkinki, PPZning yo'qotilishi taxminan  $15\text{ g}/1000\text{ m}^3$  oltingugurtsizlantirilgan gazni tashkil etadi. Qurilmadagi korroziya elektroqarshilik zondlari yordamida nazorat qilinganda sinovlarning boshida  $PPZ\ 0,7\%\text{ mass.}$  konsentratsiyasida absorberining pastki qismidagi korroziya darajasi  $0,18\text{ mm/yilni}$  tashkil etganini, PPZsiz esa  $0,29 - 0,42\text{ mm/yil}$  ni tashkil etishini ya'ni,  $1,6 - 2,3$  barobar kamayganiga guvoh bo'lish mumkin. Keyinchalik, PPZ kontsentratsiyasining pasayishi bilan korroziya darajasi oshdi va  $0,23\%\text{ mass.}$  bo'lgan piperazin konsentratsiyasida taxminan  $0,4\text{ mm/yilni}$  tashkil etdi.

Tinish zonasidagi sinalma namunalaridagi ma'lumotlarga ko'ra, korroziya tezligi  $0,024\text{ mm/yil}$  ni tashkil etdi, bu avtoklav sinovi ma'lumotlariga mos keladi. Shunday qilib, olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, dinamik sharoitlarda sezilarli ta'sirga erishish uchun PPZ ning minimal konsentratsiyasi 2-3% bo'lishi kerak. Korroziyani o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, boshqa aktivatorlardan farqli o'laroq, PPZ nafaqat absorbentlarning yutilish ko'rsatkichlarini oshiradi, balki ularning korroziya xususiyatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Bu kabi yangi kompozitsion tarkibli, samarali absorbetlardan foydalanish katta kapital qo'yilmalarsiz energiya xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi, tovar mahsulotlarining sifatini oshiradi va atmosferaga tashlanadigan zaharli chiqindilarni kamaytiradi.

Bular esa o'z navbatida mavjud yoki yangi gazni qayta ishlash ob'yektlarida gazni tozalash qurilmalarida faollashtirilgan MDEA asosidagi kompozitsion absorbentlardan foydalanish istiqbollaridan darak beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

- Nilufar Saydyaxyayevna Maxmudova, Saidjon Abdusalimovich G'Aybullaev TABIIY GAZLARNI VODOROD SUL'FIDIDAN TOZALASH USULLARINING TASNIFI // Scientific progress. 2021. №5.

2. Sharipov M. S., G'aybullayev S. A. TASHLAMA GAZLARNI NOAN'ANAVIY USULLARDA TOZALASH //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
3. Абдулазизов С. С. Ў., Шарипов М. С., Файбуллаев С. А. МОЙ ФРАКЦИЯЛАРИНИНГ КИМЁВИЙ ТАРКИБИ ВА РЕОЛОГИК ХОССАЛАРИ //Science and Education. – 2021. – Т. 2. – №. 3.
4. Абдусалимович Г.С. ИССЛЕДОВАНИЕ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ПИРОЛИЗНОГО ДИСТИЛЛЯТА // Электронная конференция Globe. - 2021. - С. 203-209.
5. Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev. "TABIIY GAZLARNI ABSORBSION QURITISH JARAYONIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR" Scientific progress, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 659-668.
6. Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev. "TABIIY GAZLARNI UZATISH VA QAYTA ISHLASHDA GIDRATLANISHGA QARSHI KURASH" Scientific progress, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 675-681.
7. Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev. "QURITUVCHI ABSORBENTLARNING QIYOSIY TAHLILI" Scientific progress, vol. 2, no. 4, 2021, pp. 649-658.
8. Zaripov, M. X. O. G. L., & G'Aybullayev, S. A. (2021). PIROLIZ KINETIKASINING MATEMATIK MODELI. Academic research in educational sciences, 2(9), 619-625.
9. Jumaev, A. V. O. G. L., & G'Aybullayev S. A. (2021). Adsorbentlarning turlari va tasnifi. Science and Education, 2 (9), 145-154.
10. G'Aybullayev, S. A. (2021). MEMBRANALI USULDA TABIIY GAZLARDAN GELIY AJRATIB OLISH. Academic research in educational sciences, 2 (5), 1594-1603. doi: 10.24411/2181-1385-2021-01074
11. Raupov, B. K. O. G. L., Mavlonov, B. A., & G'Aybullayev S. A. (2021). Bitumlarning ekspluatatsion xossalari va ularni yaxshilash. Science and Education, 2 (9), 170-179.
12. Mizrobyev Xalim O'G'Li Zaripov, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2021). UGLEVODORODLARNING TERMIK PIROLIZI MAHSULOTLARI HOSIL BO'LISHIGA REAKSIYA SHAROITINING TA'SIRI. Academic research in educational sciences, 2 (11), 723-731.
13. Toshboyev S. O. O. G. L., & G'Aybullayev S. A. (2022). Tabiiy gazlardagi keraksiz komponentlarni gazning tovarlik xususiyatlariga ta'siri. Science and Education, 3 (3), 206-213.
14. Behruz To'ymurodovich Salomatov, Murodillo Zoirovich Komilov, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2022). UGLEVODORODLI GAZLAR

TARKIBIDAGI NORDON KOMPONENTLAR VA ULARNI GAZNING XOSSALARIGA TA'SIRI. *Scientific progress*, 3 (1), 71-78.

15. Фазлиддин Мустақим Ўғли Каромов, Нилуфар Илёс Қизи Шокирова, & Сайджон Абдусалимович Файбуллаев (2022). ПОЛИМЕРЛАР САНОАТИНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДА ҚЎЛЛАНИЛИШ ҲОЛАТИНИНГ ТАҲЛИЛИ. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (3), 83-93.

16. Jamshidbek Alisherovich Umarov, Murodillo Zoirovich Komilov, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2022). GAZ KONDENASTINING TASNIFIY VA TARKIBIY TAVSIFLARI. *Scientific progress*, 3 (3), 593-599.

17. O'Lmas Niyoz O'G'Li Namozov, Qayum Karimovich Jumayev, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2022). GAZLARNI QURITISH USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARI. *Scientific progress*, 3 (3), 602-611.

18. Farhod Kamolovich Davronov, Sadulla G'Aybullayevich Toshev, Ozoda Baxronovna Axmedova, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2022). GIDROGENLOVCHI KATALIZATORLAR MODIFIKATSIYALOVCHI QO'SHIMCHALARINING TASHUVCHILAR VA FAOL KATALIZATOR MARKAZLARI STURKTURASIGA TA'SIRI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (5), 561-571.

19. Shahzodjon Hayot O'G'Li Yaxyoyev, Ozoda Baxronovna Axmedova, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2022). GAZLARNI GLIKOLLI QURITISH JARAYONINING ISHCHI PARAMETRLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2 (5), 543-552.

20. Mirshod Ismatovich Isroilov, & Saidjon Abdusalimovich G'Aybullayev (2022). Piroliz jarayonining neft-gazkimyo sanoatidagi ahamiyati. *Science and Education*, 3 (2), 349-358.

21. Gaybullaev S.A. ANALYSIS OF THE CONDITIONS FOR THE FORMATION OF GAS HYDRATES DURING THE TRANSPORTATION AND PROCESSING OF HYDROCARBON GAS, AND THE PREVENTION OF HYDRATE FORMATION // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2022. 7(100).